



URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO‘YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

UO‘K: 616-05:159.9

YURAK-QON TOMIR KASALLIKLARI BOR BEMORLARDA XAVOTIRLI BUZILISHLARNI PSIXOKORREKSIYASI

Safarbayev Boburbek Baxtiyorovich

Urganch davlat tibbiyot instituti, “Asab kasalliklari, tibbiyot psixologiyasi va psixoterapiya kafedrası assistenti, PhD

Email: bbs17121989@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0004-6743-912X>



ANNOTATSIYA

Maqolada yurak-qon tomir kasalliklarida bemorlarning psixologik xususiyatlari, himoya-yengish xatti-harakatlarini aniqlash va psixoterapevtik taktikalarni optimallashtirish bo‘yicha ilmiy ma‘lumotlar va olib borgan tadqiqotlarimiz tahlili keltirilgan. Muayyan shaxs tipologiyasi va psixopatologik buzilish shakli bilan bog‘liq stressli hayotiy vaziyatlarni yengish strategiyasining kognitiv va xulq-atvor mazmunini tuzatishga qaratilgan kognitiv-bixivioral psixoterapiya va musiqa terapiyasidan foydalanish, yurak qon-tomir kasalligidan aziyat chekayotgan bemorlarga nisbatan terapevtik chora-tadbirlar samaradorligini oshirishga imkon berdi.

Kalit so‘zlar: himoya-yengish xatti-harakatlari, psixoterapiya, yurak qon-tomir kasalliklari, xavotirli buzilishlar

ПСИХОКОРРЕКЦИЯ ТРЕВОЖНЫХ РАССТРОЙСТВ У ПАЦИЕНТОВ С СЕРДЕЧНО-СОСУДИСТЫМИ ЗАБОЛЕВАНИЯМИ

Сафарбаева Бобурбека Бахтиёровича

ассистент кафедры "Неврология, медицинская психология и психотерапия"

Ургенчского государственного медицинского института, PhD

АННОТАЦИЯ

В статье представлены научные данные и анализ наших исследований по психологическим особенностям пациентов с сердечно-сосудистыми заболеваниями, выявлению защитно-преодолевающего поведения и оптимизации психотерапевтических тактик. Использование когнитивно-поведенческой психотерапии и музыкальной терапии, направленное на корректировку когнитивного и поведенческого содержания стратегий преодоления стрессовых жизненных ситуаций, связанных с типологией личности и формами психопатологических нарушений, позволило повысить эффективность терапевтических мероприятий для пациентов, страдающих от сердечно-сосудистых заболеваний.

Ключевые слова: защитно-преодолевающее поведение, психотерапия, сердечно-сосудистые заболевания, тревожные расстройства

PSYCHOCORRECTION OF ANXIETY DISORDERS IN PATIENTS WITH CARDIOVASCULAR DISEASES

Safarbayev Boburbek Bakhtiyorovich

Assistant, Department of neurological diseases, medical psychology, and psychotherapy, Urgench state medical institute, PhD



URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO‘YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

ABSTRACT

The article presents scientific data and analysis of our research on the psychological characteristics of patients with cardiovascular diseases, the identification of defensive-coping behaviors, and the optimization of psychotherapeutic tactics. Utilizing cognitive-behavioral therapy and music therapy, aimed at correcting the cognitive and behavioral aspects of coping strategies related to stress-provoking life situations associated with specific personality typologies and forms of psychopathological disorders, has enabled an increase in the effectiveness of therapeutic measures for patients suffering from cardiovascular diseases.

Key words: *defensive-coping behaviors, psychotherapy, cardiovascular diseases, anxiety disorders*

Kirish. JSST ma'lumotlariga ko'ra, yurak qon-tomir kasalliklari butun dunyo bo'ylab o'lim ko'payishining asosiy sabablaridan biridir [3, 11, 17]. Tibbiy psixologiyada gipertoniya va yurak ishemik kasalliklari klassik psixosomatik kasalliklar sifatida qaraladi. Shu munosabat bilan bemorlarga yordam har tomonlama tibbiy-psixologik xususiyatga va shaxsga qaratilgan yo'nalishga ega bo'lishi kerak [12]. Buning uchun kasallik holatiga javob berishning psixologik omillarini hisobga olish kerak. Kasallikka shaxsiy munosabat, hayotiy-biologik, kasbiy-mehnat, ijtimoiy-psixologik va individual-psixologik yondashish ma'nolarga bog'liq [13, 14]. Ko'pgina tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bemorlar bir qator sabablarga ko'ra affektiv buzilishlarning rivojlanishiga ko'proq moyil [6, 15] va yurak qon-tomir kasalliklari bo'lgan bemorlarda affektiv buzilishlar mos ravishda 64% - 80% hollarda aniqlanadi. Shu bilan birgalikda ushbu holatlarning komorbidlik darajasi 70% ga yetadi [5, 8]. Xavotirli-depressiv buzilishlarning yurak qon-tomir kasalliklari tarkibida kuzatilishi ushbu patologiyani kompleks davolashda psixoterapiyaning muhim rolini belgilaydi. [7, 10, 16]. Shu sababdan, stress bilan kurashish strategiyalari psixoterapevtik ta'sirni qo'llash nuqtalari bo'lishi mumkin; kasallikning boshlanishini va nevroitik "qatlamlar" ning rivojlanishini aniqlash, bemorning munosabatlar tizimining elementlari; bemorning ijtimoiy faoliyati, oila va jamiyatga qayta moslashishi; biologik tabiatning terapevtik ta'sirining samaradorligini oshiradi [2, 9]. Psixosomatik buzilishli bemorlarning shaxs-tipologik xususiyatlari va ularning stressni yengish strategiyalarining o'zaro ta'siri, ushbu bemorlarga statsionar sharoitlarda psixoterapevtik yordam ko'rsatish hajmini aniqlash uchun optimal terapevtik maqsadlarni izlash haligacha dolzarbligicha qolmoqda. [1, 4, 18]. Shu munosabat bilan yurak qon-tomir kasalliklari bilan og'rikan bemorlarning kliniko-psixologik va individual-shaxsiy parametrlarini o'rganish asosida samarali psixoterapevtik yondashuvlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, ularning psixosomatik kasalliklarning shakllanishi davrida yuzaga keladigan stressli vaziyatlarni yengish strategiyasini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuvlar nafaqat kasallikni davolashga, balki uning prognoziga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi, bu esa inson sog'lig'ining ajralmas ko'rsatkichi sifatida hayot sifatini yaxshilashga yordam beradi.

Tadqiqotning maqsadi - yurak qon-tomir kasalligida bemorlarning xavotirli-fobik buzilishlarida psixoterapevtik chora-tadbirlarni optimallashtirish.

Materiallar va tadqiqot usullari. Yurak qon-tomir kasalligi bo'lgan 114 bemor tekshirildi. Ulardan 52 nafariga gipertoniya kasalligi I va II daraja, 62 nafariga – yurak ishemik kasalligi (zo'riqish stenokardiyasi) tashxisi qo'yilgan va affektiv buzilishlar ham aniqlangan. Ular orasida erkaklar soni 49 (43,0%), ayollar soni 65 (57,0%) ni tashkil etdi. Erkaklarning o'rtacha yoshi $51,8 \pm 7,88$, ayollarniki esa $53,3 \pm 6,64$ edi. Tadqiqotlarga kiritilgan ushbu bemorlarda psixokarreksiya samaradorligini baholash uchun yana tasodifiy ravishda 2 ta guruhga bo'ldik. Asosiy guruh *takomillashtirilgan terapiya qo'llanilgan guruh* deb nomlanib, bemorlar kardiologik standart terapiya va kognitiv-bixevioral psixoterapiya (KBP) bilan musiqa terapiya usuli davolangan 55 bemordan iborat edi. Taqqoslash guruhi *standartlashtirilgan terapiya qo'llanilgan guruh* deb nomlanib, faqat davolash terapevtik standartlarga muvofiq (kardiologik dori vositalari) davolangan 59 kishidan iborat edi. Guruhlarning taqqoslanishi klinik va ijtimoiy-demografik jihatdan bo'ldi. Guruhlarni




URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO‘YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

shakllantirish quyidagi mezonlar asosida edi: klinik tekshiruv asosida aniqlangan xavotirli buzulish yoki yengil xavotirli-fobik buzilishlar mavjudligi. Tadqiqotga bemorlarni tekshirishni qiyinlashtiradigan; og‘ir somatik patologiyadan aziyat chekadigan, shuningdek, o‘rganishni qiyinlashtiradigan og‘ir ruhiy patologiya belgilari aniqlangan shaxslar kiritilmagan: organik ruhiy kasallik (XKT-10 bo‘yicha F00-F09), endogen psixoz (F20-F29), psixoaktiv moddalarni iste‘mol qilish sababli aqliy va xulq-atvor buzilishi (F10-F19), aqliy zaiflik (F70 - F79) shular jumlasidandir. Bemorlarni tekshirishda somatik holat baholandi, psixologik ko‘rsatkichlar o‘rganildi. Klinik va psixologik tekshiruv quyidagi testlarni o‘z ichiga oldi: Leongard-Shmishkek so‘rovnomasi, Spilberger-Xaninning reaktiv va shaxsiy xavotirlarni aniqlash shkalasi, R. Lazarusning "koping - strategiyasi" so‘rovnomasi.

Muhokama va natijalar. Davolanishdan oldingi birinchi bosqichda bemorlar klinik va psixologik tekshiruvdan o‘tkazildi, bu esa quyidagi ma‘lumotlarni olish imkonini berdi. Tekshirilgan guruhdagi bemorlar yuqori shaxsiy xavotir va o‘rtacha reaktiv xavotir bilan ajralib turardi. R. Lazarusning "koping – strategiyasi" so‘rovnomasida aniqlangan stressni yengish uchun yetakchi strategiyalar ikkala guruhda ham "o‘zini - o‘zi boshqarish", "ijtimoiy yordam qidirish", "muammoni yechimini rejalashtirish" bo‘lib, intensivligi yuqori darajada edi(1-rasm).



1-rasm. Davolanishdan oldin tekshirilgan bemorlarning koping – strategiyalari.

Tadqiqotda korrelyatsion tahlil bemorlarning shaxs – tipologik xususiyatlarining va ushbu bemorlar tomonidan qo‘llaniladigan stress bilan kurashish strategiyalari orasida statistik jihatdan ahamiyatli bog‘liqligini ko‘rsatishga imkon berdi. Natijada, xavotirli – shubhalanuvchan bemorlar namoyishkor va emotsional labil bemorlarga qaraganda ko‘proq "ijtimoiy yordam qidirish" strategiyasini afzal ko‘rishdi ($r = 0.263$; $p < 0.05$), distimik shaxslar asosan "masofa saqlash" va "vaziyatdan qochish" strategiyalarini tanladilar. Ayollar tez-tez ($r = 0,298$; $p < 0.05$) o‘z maqsadlariga erishish uchun " ijtimoiy yordam qidirish" strategiyasidan foydalanganlar, erkaklar esa "o‘zini o‘zi boshqarish" strategiyasini afzal ko‘rishgan ($r = 0.342$; $p < 0.05$).




URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO‘YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

Yurak qon-tomir kasalligi tashxislangan bemorlarda xavotir va uning yaqqollik darajasi Spilberger-Xanin so‘rovnomasi orqali tahlil qilindi. Unga ko‘ra asosiy va taqqoslash guruhlardagi bemorlarda davolashdan avvalgi umumiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha quyidagi natijalar qayd qilindi:

Asosiy guruhdagi bemorlar ($n=55$) da reaktiv xavotir $39,8 \pm 1,2$, shaxsiy xavotir esa $48,3 \pm 1,4$ ni tashkil qilgan bo‘lsa, taqqoslash guruhdagi bemorlar ($n=59$) da esa reaktiv xavotir $40,6 \pm 1,3$ va shaxsiy xavotir $47,1 \pm 1,1$ ni tashkil qildi (2-rasm).




2-rasm. Davolanishdan oldin reaktiv va shaxsiy xavotir ko‘rsatkichlari.

Olingan ma‘lumotlar keyingi bosqichda tez-tez qo‘llaniladigan shiddatli koping - strategiyalari asosida yotadigan irratsional kurashish shakllarini aniqlashga, ushbu kurashish shakllarini qayta ko‘rib chiqishga, so‘ngra ma‘lum bir mikroijtimoiy muhitda javob berish va xatti-harakatlarning moslashuvchan va konstruktiv uslublarini shakllantirishga qaratilgan shaxs tipologiyasiga muvofiq yanada tabaqalashtirilgan psixoterapevtik ishlarni amalga oshirishga imkon berdi.

Psixoterapevtik ta‘sirning maqsadi, yurak qon-tomir kasalligi bilan og‘rigan turli xil shaxs-tipologik fonda bo‘lgan bemorlarda stressni yengish uchun ishlatilgan strategiyalar, affektiv buzilishlarning asosini tashkil etuvchi kognitiv disfunktsional ko‘rinishlar edi.

O‘rganilayotgan asosiy guruhdagi xavotirli buzilishlarga ega bemorlarni statsionar sharoitda kompleks davolash jarayonida psixoterapevtik korreksiya samaradorligini baholash mezonlari sifatida sog‘liqning psixoemotsional va jismoniy komponentlari ko‘rsatkichlari olindi. Tahlil natijalari taqqoslash guruhiga nisbatan asosiy klinik va psixologik parametrlarning yanada sezilarli ijobiy dinamikasini namoyon etdi. Shu bilan birga, baholashda bemorlarning kasallikka qarshi kurashish strategiyasini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlarning ijobiy o‘zgarishi ham qayd etildi, bu esa psixoterapevtik yondashuvning kompleks davolash samaradorligini oshirishdagi muhim o‘rnini tasdiqlaydi. Terapevtik kurs yakunida biz o‘rganilgan bemorlarning asosiy klinik va psixologik parametrlarining qiyosiy dinamikasini baholadik.

Shunday qilib, ikkala guruhda ham, asosiy guruhda psixokorreksiadan keyin va taqqoslash guruhida standart terapiyadan keyin Spilberger-Xaninning reaktiv va shaxsiy xavotir shkalasi ma‘lumotlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, ikkala guruhda ham reaktiv va shaxsiy xavotirning pasayishi kuzatilgan, asosiy guruhda bu pasayish aniqroq bo‘lgan. Asosiy guruhdagi shaxsiy xavotir darajasi yuqori darajadan o‘rtacha shaxsiy xavotirgacha kamaydi, ikkinchi taqqoslash guruhida ushbu ko‘rsatkich biroz pasayganiga qaramay, shaxsiy xavotir darajasi yuqori qiymatlar oralig‘ida qoldi (3-rasm).



3-rasm. Davolanishdan keyin reaktiv va shaxsiy xavotir ko‘rsatkichlari.

Bunday natijalar yurak qon-tomir kasalliklarida shikoyatlarining kamayishi, shuningdek, bemorlarning umumiy ahvoli yaxshilanishi bilan bog‘liq edi. Taqqoslash guruhiga nisbatan asosiy guruhdagi shikoyatlar chastotasining yanada muhim ijobiy dinamikasi statistik jihatdan ishonchli edi ($p < 0,05$). R. Lazarusning "koping-strategiyasi" so‘rovnomasini baholash natijalariga ko‘ra, davolanishdan keyin tekshirilgan guruhlarda afzal topilgan koping -strategiyalarining keskinligi pasaygan va asosiy guruhda aniqroq bo‘ldi.

Tadqiqotimizning ikkinchi bosqichida psixoterapevtik ta‘sir ostida turli xil affektiv buzilishlarga ega yurak qon-tomir kasalliklari bo‘lgan bemorlarda klinik va psixologik xususiyatlarning o‘zgarishi baholandi. Bunday bemorlarda R. Lazarusning "koping-strategiyasi" so‘rovnomasi ma‘lumotlarini taqqoslash shuni ko‘rsatdiki, gipertoniya kasalligi va yurak ishemik kasalligi bilan og‘rigan bemorlarning afzal ko‘rgan koping strategiyalari o‘rtasida sezilarli farqlar yo‘q edi. Asosiy guruhdagi bemorlarda, taqqoslash guruhidagi bemorlarga nisbatan reaktiv va shaxsiy xavotir darajasining sezilarli pasayishi kuzatildi.

Shunday qilib, ma‘lum bir shaxs tipologiyasi shakli va psixopatologik buzilishlar bilan bog‘liq bo‘lgan stressli hayotiy vaziyatlarni yengish strategiyasining kognitiv va xulq-atvor mazmunini tuzatishga qaratilgan kognitiv psixoterapiyani qo‘llash yurak qon-tomir kasalliklari bo‘lgan bemorlarda xavotirli buzilishlarga qarshi terapevtik chora-tadbirlarning samaradorligini oshirishga imkon berdi.

XULOSA

Yurak-qon tomir kasalliklariga chalingan, xavotirli buzilishlari mavjud bo‘lgan bemorlarning klinik va psixologik xususiyatlari reaktiv va shaxsiy xavotirning yuqori darajalari bilan tavsiflanib, bu holat psixo-emotsional stressli vaziyatlarning sezilarli darajada namoyon bo‘lishiga olib keladi. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, stressni yengish bo‘yicha yetakchi strategiyalar darajasidagi kuchlanish yuqoridagi parametrlar bilan bevosita bog‘liqdir. Bemorlarda moslashuvchan kurash strategiyalari sifatida "o‘z-o‘zini boshqarish", "ijtimoiy yordam qidirish" va "muammoni yechimini rejalashtirish" ko‘proq kuzatilsa, moslashuvchan bo‘lmagan strategiyalar qatoriga "vaziyatdan qochish", "masofa saqlash" hamda "ijobiy qayta baholash" kiradi.

Xavotirli buzilishlari bo‘lgan bemorlarda kurash strategiyalarining tanlanishi ularning shaxs-tipologik xususiyatlari bilan uzviy bog‘liq ekanligi aniqlandi. Jumladan, xavotirli-shubhali, namoyishkor va emotsional-labil tipdagi shaxslar asosan "ijtimoiy yordam qidirish" strategiyasini afzal ko‘rgan bo‘lsa, rasmiyatchi tipdagi shaxslar ko‘proq "o‘zini o‘zi boshqarish" strategiyasidan foydalanadilar. Distimik aksentuatsiyaga ega bo‘lgan bemorlar esa ko‘pincha "masofa saqlash" yoki "vaziyatdan qochish" strategiyalariga murojaat qilgan. Gender xususiyatlari ham muhim rol o‘ynaydi: ayollarda "ijtimoiy yordam qidirish" strategiyasi ustun bo‘lsa, erkaklarda esa "o‘zini o‘zi boshqarish" strategiyasi yetakchi ahamiyat kasb etgan. Shuningdek, yurak-qon tomir kasalliklari



URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO‘YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

fonida xavotir buzilishlari mavjud bemorlarda individual koping-strategiyalarni psixokorreksiya qilish muhim klinik natijalar bergani qayd etildi. Xususan, optimallashtirilgan kognitiv-bixeviorial psixoterapiya va musiqa terapiyasi kabi maxsus psixoterapevtik metodlarning qo‘llanilishi, ularni bazis davo bilan uyg‘unlashtirilgan holda olib borilishi terapevtik jarayonlarning samaradorligini sezilarli darajada oshirdi. Bu yondashuv nafaqat psixoemotsional holatni barqarorlashtirish, balki stressga qarshi moslashuvchan strategiyalarni shakllantirish hamda bemorlarning klinik prognozini yaxshilashga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdullaeva V. K. et al. Psychological Features of Cardiological Patients in the Process of Psychocorrection //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – C. 3787-3793.
2. Abdullayeva V.K., Safarbayev B.B., Palvanov R.O. , Qurbonboyev S.K. , Muhtorov B.A. Psixokorreksiya jarayonida kardiologik bemorlarning psixologik xususiyatlari // RSCB yilnomalari, ISSN: 1583-6258, Vol. 25, 2-son, 2021 yil, bet. 3787 - 3793.
3. Albert M.A., Biktimirov T.Z., Shutov A.M. va boshqalar. “Surunkali yurak yetishmovchiligi bo‘lgan bemorlarni davolash va shaxsiy xususiyatlariga rioya qilish”. Ulyanovsk davlat universitetining ilmiy eslatmalari. 2008; 1(13): 6–9.
4. Amir M. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining hayot sifatini baholash // Europ , Psychial - 2018 - Vol. 9.- Suppl. 1. - B. 68/
5. Babarahimova S.B. , Shaxanskaya O.V., Iskandarova J.M. Depressiv kasalliklarga chalingan ayollarning shaxsiy xususiyatlari va ularning hayot sifatiga ta‘siri. 2013 yilgi SIC sotsosfera konferentsiyasi to‘plamlari.
6. Djangildin Y.T., Baranov M.L. Statsionar sharoitda gipertenziya bilan og‘rigan bemorlarni davolashda psixoterapiyaning o‘rni va ro‘li (Adabiyotlar sharhi) // Ichki ishlar vazirligining tibbiy byulleteni. - 2012. - 1-son (56). - S. 57-59.
7. Gromova E. A. Yurak qon-tomir kasalliklari uchun psixoiijtimoiy xavf omillari (adabiyot sharhi) // CSM. - Tomsk, 2012. - 2-son. -FROM. 22-29.
8. Kilihev I. A. et al. Register of stroke in the desert-steppe zones of Uzbekistan //BIO Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – T. 65. – C. 04002.
9. Kubekova A.S. Himoya-engish xatti-harakatlarining turli strategiyalariga ega psixosomatik profildagi bemorlarning psixologik xususiyatlari // V.Yu. Ribnikov, E.N. Ashanina , I.Yu. Kobozev, A.S. Kubekova // Psixoterapiya byulleteni. – 2020 yil – 74 (79). 97-109-betlar.
10. Mamedov M.N. Zo‘riqish stenokardiyasi bilan og‘rigan bemorlarning psixologik holatini baholash / M.N. Mamedov, R.T. Didigova , Z.Z. Bulgacheva // Kardiologiya. - 2012. - No 1. - S. 20-25.
11. Matveyeva A.A, Sultonova K.B. , Abbasova D.S va boshqalar. Emotsional holatlarning psixodiagnostikasini optimallashtirish // Daniya ilmiy jurnali. 3-jild, No 5(2020 yil), 24-27-betlar.
12. Soloduxin A.V., Bezzubova V.A., Kuxareva I.N., Inozemtseva A.A., Seryi A.V., Yanitskiy M.S., Trubnikova O.A., Barbarash O.L. Yurak ishemik kasalligi bilan og‘rigan bemorlarning kasallikning ichki manzarasining psixologik xususiyatlari va ularning kognitiv holati parametrlari bilan o‘zaro bog‘liqligi. Rossiya Xalqlar Do‘stligi Universitetining xabarnomasi. Seriya : Psixologiya va pedagogika . 2017. T. _ 14. No 2. S. 178-189.
13. Абдуллаева В. К., Сафарбаев Б. Б. ОСОБЕННОСТИ КЛИНИЧЕСКОЙ ГЕТЕРОГЕННОСТИ ПСИХОСОМАТИЧЕСКИХ РАССТРОЙСТВ //Ответственный редактор–Зражевская Инна Александровна–. – 2015. – Т. 8. – С. 49.
14. Абдуллаева В. К., Сафарбаев Б. Б. Психотерапия депрессивных расстройств у пациентов кардиологического профиля //Редакционная коллегия. – 2020. – Т. 18. – С. 656.



URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO‘YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

15. Абдуллаева В. К., Сафарбаев Б. Б. Эффективность применения инновационных методов психотерапии эмоциональных расстройств у пациентов кардиологического профиля //ЧФ: ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ ФАКТОР СОЦИАЛЬНЫЙ ПСИХОЛОГ. – 2020. – С. 269.
16. Ахмедов С. А., Сафарбаев Б. Б. ПРИМЕНЕНИЕ РАЦИОНАЛЬНОГО МЕТОДА ПСИХОТЕРАПИИ ПРИ ПСИХОСОМАТИЧЕСКИХ РАССТРОЙСТВАХ //XVI Съезд психиатров России. Всероссийская научно-практическая конференция с международным участием " Психиатрия на этапах реформ: проблемы и перспективы". – 2015. – С. 683-683.
17. Бобожанов У. А., Киличев И. А. STRUCTURE OF EPILEPTIC VESSELS IN CHILDREN RESIDING IN THE AREAL REGION AREA //Новый день в медицине. – 2019. – №. 3. – С. 70-72.
18. Сафарбаев Б. Б. РОЛЬ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ В ДИАГНОСТИКЕ УРОВНЯ ТРЕВОЖНОСТИ У ПАЦИЕНТОВ КАРДИОЛОГИЧЕСКОГО ПРОФИЛЯ //Психология и медицина: пути поиска оптимального взаимодействия. – 2020. – С. 142-147.

